ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

Folklorshunoslik

Abdumurod Tilavov

O‘zbek dostonlariga doir Turkiyadagi tadqiqotlar 147

Hulkar Aliqulova

Turkiy xalqlar folklorida olqish va qarg‘ishlarning qiyosiy tipologik tahlili 160

Ilhom Jumayev

“Qutadg‘u bilig” dostonida Kuntug‘di va O‘zg‘urmish munosabatlarining folklor motivlariga xos talqini 171

Norkulova Shaxnoza

“Boburnoma”da xalq og’zaki ijodi namunalari badiiy talqini 181

Dilorom To‘rayeva

Usmon Azim ijodida folklor namunalari va xalqona ohang **.....** 189

Mahkamova Dilafruz

“Bilga Xoqon” obrazining zamonaviy nasr va nazmda ifodalanishi .. 198

Rajabbayeva Ozoda

O‘zbek mifologiyasida “Irq bitik”ning qimmati 207

Abduraximova Nazokat

O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi 216

Turobova Mohinur

O‘zbek laparlari va turk karshilikli manilari tadqiqi 224

ISSN 2181-922X 216— *223*

O‘ZBEK VA TURK XALQLARIDA NIKOY TO‘YI MAROSIMI

Abduraximova Nazokat[1]

Abstarkt

Nikoh to‘yi har bir xalq madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u milliy an’analar, urf-odatlar va ijtimoiy qadriyatlarning aks etish maydonidir. Nikoh asrlarda davomida shakllangan diniy va madaniy an’analarning hosilasidir. Bu marosim har ikki xalqning urf-odatlari, turmush tarzi va e’tiqodlari bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek va turk xalqlari tarixiy ildizlari va diniy urf-odatlarining yaqinligi bilan ajralib turadigan ikki millat bo‘lib, ularning nikoh to‘ylari o‘xshash jihatlar va o‘ziga xos farqlarga boydir. Har ikki xalq turkiy etnik asosga, umumiy islomiy qadriyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, nikoh to‘ylariga bo‘lgan yondashuvlarida muayyan farqlar mavjud. Ushbu maqolada ikki qardosh xalqning nikoh marosimlari, ularning o‘ziga xos jihatlari va o‘zaro o‘xshashliklari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek to‘yi, turk to‘yi, nikoh, marosim, diniy marosim, urf-odat

Nikoh to‘y marosimlari insoniyat tarixining qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo‘lib, jamiyatdagi oila institutining shakllanishida asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir xalqda nikoh marosimlari o‘ziga xos urf-odat, axloqiy me’yor va diniy e’tiqodlar bilan uyg‘unlashgan. O‘zbek va turk xalqlari o‘rtasida mavjud tarixiy, lingvistik va madaniy yaqinlik ularning nikoh an’analariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shunga qaramay, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu ikki xalq turli siyosiy va huquqiy yo‘nalishlarda rivojlanganligi sababli, nikoh marosimlarining huquqiy asoslari va jamiyatdagi funksiyasi jihatidan tafovutlar yuzaga kelgan. Ushbu maqolada o‘zbek va turk nikoh marosimlari tarixiy-madaniy kontekstda solishtirilib, ularning o‘xshashliklari va farqlari chuqur tahlil qilinadi. Nikoh to‘yi har bir xalqning madaniy hayotida alohida o‘rin tuta-

[1]*Abduraximova Nazokat* - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti magistranti
E-pochta: qaxxorovanazokatt@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-6600-5248
Iqtibos uchun: *Abduraximova N.. 2025. “O‘zbek va turk xalqlarida nikoy to‘yi marosimi”.* O‘zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2. 108-115. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/RLAR4482

di. U nafaqat ikki insonning bir-biriga bog‘lanishi, balki ikki oilaning, ba’zida esa ikki urug‘-elatning yaqinlashuvi, birlashuvi sifatida qaraladi. O‘zbek va turk xalqlari qadimdan oila institutiga katta e’tibor bilan yondashgan. Ularning nikoh marosimlari madaniy, diniy va tarixiy qadriyatlarning mujassam namunasidir. “Nikoh to‘yi marosimlari mamlakatimiz, shu jumladan, dunyo xalqlari tarixida o‘ziga xos etnik xususiyatga ega bo‘lib, muhim qadriyatlardan sanaladi. Nikoh to‘yi folklorining mana shu kabi uzviy jihatlari, ritualmifologik tabiatini o‘rganishda avvalo o‘zbek va jahon xalqlarining tarixiy etnik ildizlariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki muammoni muayyan bir mintaqa, hudud yoki mamlakat doirasida tadqiq etish orqali ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi[Mardonova, 2015].

O‘zbek jamiyatida nikoh to‘yi qadimdan ijtimoiy institut sifatida shakllangan bo‘lib, uning asosiy funksiyasi faqat ikki shaxsning turmush qurishi emas, balki:

- Ikkita oilani birlashtirish,
- Jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash,
- Milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishdan iborat.

Bu nuqtai nazar Bronislaw Malinovskiyning **funksionalizm nazariyasi** bilan uyg‘unlashadi: to‘y marosimi jamiyat ichida ijtimoiy barqarorlikni saqlovchi vosita hisoblanadi. Malinovskiy nazariyasiga ko‘ra, har bir madaniy institut jamiyatda muayyan funksiyani bajaradi. Nikoh to‘ylari orqali jamiyat:

- **Biologik ehtiyojlarni** (nasl qoldirish);
- **Ijtimoiy ehtiyojlarni** (ijtimoiy tartib, oila institutining barqarorligi);
- **Madaniy ehtiyojlarni** (an’ana, rasm-rusumlar orqali identitet shakllantirish) qondiradi[Mirzayev,1990].

Nikoh to‘yi – to‘ylarning eng yirigi va mas’uliyatlisi sanaladi. U orqali voyaga yetgan yigit-qiz qismati birlashtiriladi, ularning oila qurishi nishonlanadi. Yigit va qizning xalq oldida naslni davom ettirish va jamiyat nizomlari asosida yashash ahdini zimmalariga olganligi qayd etiladi. Nikoh masalasi ijtimoiy-axloqiy hodisa sifatida barcha mamlakatlarda din va qonunlar bilan mustahkamlanib kelingan va kelinmoqda.

O‘zbek folklorshunoslikda nikoh to‘yi bilan bog‘liq quyidagi folklor shakllari o‘rganiladi:

- *Marosim qo‘shiqlari:* kelin salom, kuyov salom, yig‘i qo‘shiqlari, yor-yorlar, o‘lanlar, duv-duv gaplar va boshqalar.

- *Afsona va rivoyatlar:* ba'zi hududlarda to'y bilan bog'liq e'tiqodlar va afsonalar mavjud.
- *O'yinlar va raqslar:* to'y davomida ijro etiladigan xalq raqslari va an'anaviy o'yinlar.
- *Masallar va maqollar:* nikoh, oila va baxt haqida aytiladigan xalq og'zaki ijodi namunalarining roli katta.

Turk nikoh to'yining marosim shakllari esa quyidagidan iborat:

a) Marosim qo'shiqlari (türkü, ağıt, ninni)

- ***Gelin türküsü (kelin qo'shig'i)*** – kelinni uyidan chiqarishda aytiladi.
- ***Düğün havaları (to'y havolari)*** – raqsga tushish uchun ijro etiladigan musiqalar.
- ***Ağıtlar (yig'ilar)*** – ayriliq yoki kelin uyidan chiqayotgan paytda kuylanadigan qayg'uli qo'shiqlar.

b) Afsona, ertak va rivoyatlar

- Ko'plab folklor asarlarida yigit-qiz muhabbati, ota-ona roziligi, to'y oldi sinovlar (masalan, qahramonning jasoratini isbotlash) aks ettiriladi.
- Masalan, ***Kerem ile Aslı, Ferhat ile* Şirin*, Tahir ile Zühre*** kabi dostonlar turk nikoh to'yiga oid xalq qarashlarini ifodalaydi.

c) O'yinlar va urf-odatlar

- *Kına gecesi (xina kechasi*): bu to'y oldidan kelin uchun o'tkaziladigan ayollar kechasi bo'lib, an'anaviy xina qo'shig'i aytiladi va hissa tarzida yod olingan qo'shiqlar ijro etiladi.
- *Damat tıraşı (kuyovni soqol olish marosimi)*: kuyov do'stlari bilan marosimli tarzda tayyorlanadi[Başgöz, 2005].

Nikoh to'yi uch bosqichli tarkibiy tuzilishga ega:

Birinchi bosqich. Nikoh kunigacha o'tkaziladigan marosimlarni qamrab oladi. Bunga beshikqudalik, sovchilik, "non sindirish", "ro'mol berdi", fotiha to'yi, qalin olish, maslahat oshi kabilar kiradi. Unashtirilgan qiz "Boshi bog'liq" hisoblanadi. O'tmishda bu qizlarning soch turmaklashlari orqali ham anglatilgan. Unashtirulgungacha qizlar ko'cha-ko'yda sochlarni durra shaklida bir tutam qilib turmaklab yurgan bo'lsalar, unashtirilgandan keyin ikki tutam holatida yurganlar. Bu ularning egalik bo'lganliklarini bildirgan.

Ikkinchi bosqichga kelinni olib kelish yo‘lini ochuvchi nikohlashdan iborat tantanali kun kiradi. U nikoh to‘yining oliy nuqtasi bo‘lib, folklor aytimlariga, urf-odatlarga, turli-tuman an’analarga boyligi bilan ajralib turadi. Kelinni kuyovni uyiga kuzatib borishda, “yor-yor” lar aytiladi. Yor-yorda kelin-kuyovga ezgu amallar,tilaklar bildiriladi.

Masalan:

Ninam uchi sindi deb
Urding onam, yor-yor.
Mana ketib boraman
*Tinding onam, yor-yor[*Isroilova, 2023*].*

Uchinchi bosqich kelin-kuyovni olib kelinganidan so‘ng, ya’ni nikoh kunining ertasidan boshlab o‘tkaziladigan “bet ochar”, “kelin salom”, “kuyov salom”, “kelin ko‘rdi” singari xilma-xil marosimlarni o‘z ichiga oladi.

Folklorshunoslar nikoh marosimlari bilan bog‘liq ko‘plab sinkretik e’tiqod (islomiy va islomgacha bo‘lgan qarashlar qorishmasi), yashirin semantikalar, va marosimiy harakatlarning ahamiyatini tahlil qiladilar. Masalan:

- *Gul solish, kuyovoyning yuzini yopish, quda-andalik marosimlari* — bularning barchasi xalq ongidagi qadimiy ramzlar bilan bog‘liq.
- *Qizning yig‘isi, to‘yni “ochish” va “berkitish”* kabi marosimiy elementlar ayollar folklorining alohida ko‘rinishlaridir[Oz. sputniknews.uz].

O‘zbek va turk to‘ylarining o‘tkazilish jarayoni keng qamrovli bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Ularning har birining o‘ziga xos jihatlari va o‘rinlari mavjud. Qadimdan saqlanib kelingan urf-odatlar va an’analar bu marosimni o‘tkazish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. To‘ydan avval olib boriladigan marosim turlari har ikki xalqning ham hayotidan muhim o‘rin egallagan. Ular quyidagicha tasniflanadi:

Sovchilik va fotiha

To‘yning ilk bosqichi *sovchilik* bo‘lib, bu ikki oila o‘rtasidagi ijtimoiy aloqa va kelishuvni anglatadi. Kuyov tomon bo‘lajak kelinning uyiga sovchilikka boradi va uning yigitga mosligini, qanday tarbiya olganini, ikki oila o‘zaro tengmi va h.k larni taqqoslaydi. Agar qiz tomonga kuyov taraf ma’qul kelsa, ular ikkinchi marotaba yana kelishadi. Agar qiz taraf rozilik bildirsa, ular olib kelgan dasturxon ochiladi va keyingi safar fotiha kuni kelishilinadi. *Fotiha to‘yi* esa diniy va an’anaviy rozilikning ifodasidir. Bu kuni ikki yosh uchun fotiha

oʻqiladi. Ikki tomon oila a'zolari bir-biriga sovgʻa-salomlar hadya qilishadi. Bu nikohning boshlanish debochasi hisoblanadi.

Turklarda esa *"Kız Bakma-kız Görme"*, *"Görücü usulü"* shaklida nomlanadi. Turklarda ham oʻzbeklar kabi boʻlajak kelinning rang-roʻyini, boʻy-bastini bilish muhim boʻlgan jarayonlardan biridir[Abdurrahman, 2010]. Shu sababli ham yaqin qoʻni-qoʻshnidan, qarindoshdan yoki yashab turgan shahardan kelin qilish muhim ahamiyatga egadir. Kelin izlayotgan onalar ularning uyini, roʻzgʻorini koʻrib, ularning qanday oila ekanligini aniqlashtirib olishadi[Erman Artun, 2011]. Bu jihatlar ikki qardosh xalqning ham urf-odatlaridagi muhim masalalardan biridir. Qiz tomon rozilik bildirganidan soʻng, kuyov taraf *"K*ız isteme*"* ga kelishadi. Bu marosim oʻziga xos tashkil qilinadi. Bunda kuyov va kelin tarafdan eng yaqin qarindoshlar chaqirilib, mehmon qilinadi. Turli xil kiyim-kechaklar, sovgʻa- salomlar tuhfa qilinadi. Boʻlajak kelin kuyovga tuzli qahva olib kiradi, bu kuyovning qanchalik sabr-matonatli ekanini aniqlab beradi. Bu marosimdan soʻng *"N*ışan*"* oʻtkaziladi. Bu xuddi fotiha toʻyi kabi nishonlanadi.

Turk xalqida hech qaysi millatga oʻxshamagan oʻziga xos bir marosim mavjud. U nikohgacha boʻlgan kunlarning birida oʻtkaziladi. Bunda kelin va uning yaqinlari, dugonalari ishtirok etishadi. Kelin dugonalari bilan oʻziga xos liboslarda raqslar ijro etishadi. Va uning qoʻliga xina qoʻyiladi. Bu marosim *Kına gecesi* deb nomlanadi. "Xina kechasida kelinning yigʻlashi tabiiy holdir. U bir tarafdan ota-onasidan, uyidan ketyotgani uchun siqilsa, bir tomondan eng baxtli kunlarini oʻtkazyotganidan sevinadi. Unda aytiladigan türkü(qoʻshiq)lar ham oʻziga xos ritmga egadir.

Anam beni verme yad ele/ben dayanamam gurbet ele
Ana üstümde *bir kara bulut/ana ben gidiyorum sari*
zeybek geliyor enişten/her yani görülmüyor gümüşten
Vallahi haberim yok bu isten/ana ben gidiyom sen beni unut

[Turan,2000; 537].

Nikoh marosimi

Nikoh diniy sharoitda, imom ishtirokida oʻqiladi. Bu marosim shariat asosida oila tuzilganining tasdigʻidir. Har ikki millatda ham bu jarayon muhim oʻrin olib, oʻziga xos oʻringa ega. Nikohsiz hech bir toʻy oʻtkazilmaydi.

Toʻy marosimi

Toʻy keng ishtirokli, musiqali va marosimli tarzda oʻtadi. Bu bosqichda ijtimoiy birdamlik, mehmondoʻstlik va jamiyatning

qo‘llab-quvvatlovi namoyon bo‘ladi. O‘zbeklarda va turklarda ham to‘y dabdaba va hashamatli qilib o‘tkaziladi. Turklarda ham to‘ylar katta tantanalar bilan o‘tkaziladi. An’anaga ko‘ra, to‘y marosimlari juda ko‘p bosqichlardan iborat bo‘lib, raqslar va o‘yinlar bilan o‘zgacha muhitda o‘tkaziladi.

Kelin salom

Bu marosim kelinning yangi oilaga kirishini ramziy ravishda ifodalaydi. Kelin qarindoshlarga ta’zim qiladi, ular esa unga duolar bilan javob berishadi. Yangi xonadon bilan tanishtiriladi.

Demak, fikrimizni xulosalaydigan bo‘lsak, o‘zbek va turk folklorida nikoh to‘yi marosimlari turli shakl va mazmunlarda mavjud bo‘lsa-da, ularning asosida yotgan ramziy tizim, marosimiy struktura va ijtimoiy-funktsional vazifalar o‘zaro uyg‘unlik va mushtaraklik kasb etadi. Bu esa ikki xalqning etnogenetik yaqinligi, madaniy va ruhiy-ma’naviy jihatdan o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqur anglash imkonini beradi. Nikoh to‘yi marosimlarining folklorshunoslik nuqtai nazaridan tadqiqi esa zamonaviy folklorshunoslik fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

Mardonov, G. *Nikoh to‘yi marosimi va uning o‘rganilishi*. Qarshi:

Artun, E. (2011). *Türk Halkbilimi*. Adana: Karahan Kitabevi.

Mirzayev, T. (1990). *O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi*. Toshkent: O‘qituvchi.

Isroilova, X. (2023). Marosim va udumlarning nazariy xususiyatlari xususida. // *Folklor va etnografiya ilmiy jurnali*. Toshkent

Başgöz, İ. (1995). *Halk Hikâyeleri ve Halk Hikâyeciliği*. Ankara: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları.

Turan, S. Çukurova kina geleneğinde ağıt türküler.

https://www.abiturtest.com

https://oz.sputniknews.uz

Abdurrahman, G. *Türk halk edebiyatı: El kitabı*. Ankara: Akçağ Yayınları.

THE WEDDING CEREMONY IN UZBEK AND TURKISH FOLK TRADITIONS

Nazokat Abdurakhimova[1]

Abstarkt

The wedding ceremony is an inseparable part of every nation's culture, representing a synthesis of national traditions, customs, and social values. It is the product of religious and cultural practices that have evolved over centuries. Wedding customs are intrinsically linked to a nation's way of life, beliefs, and value system. The Uzbek and Turkish peoples are distinguished by their shared historical roots and religious traditions. The wedding ceremonies of these two fraternal nations are rich in both similarities and unique national characteristics, each reflecting certain cultural differences as well. Although both nations share a Turkic ethnic origin and common Islamic values, there are specific distinctions in their approaches to wedding ceremonies. This article provides a scholarly analysis of the wedding traditions of the Uzbek and Turkish peoples, highlighting their unique aspects and mutual similarities.

Keywords: Uzbek wedding, Turkish wedding, marriage, ceremony, religious ceremony, customs.

References

Mardonov, G. *The Wedding Ceremony and Its Study*. Karshi: [Publisher not specified].

Artun, E. (2011). *Turkish Folkloristics*. Adana: Karahan Kitabevi.

Mirzayev, T. (1990). *The Oral Poetic Creativity of the Uzbek People*. Tashkent: O'qituvchi Publishing House.

Isroilova, Kh. (2023). On the Theoretical Aspects of Rituals and Customs. // *Journal of Folklore and Ethnog-*

[1]*Nazokat Abdurakhimova***-** Master's Student, Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
E-mail: qaxxorovanazokatt@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0001-6600-5248
For citation: *Abdurakhimova N. 2025. "The Wedding Ceremony in Uzbek and Turkish Folk Traditions".* Uzbekistan: Language and Culture. Folklore. Dialectology 2. 216-223. Doi. 10.52773/tsuull.uzlc-folklore.2025/RLAR4482

raphy. [Details of the publication missing – to be clarified].

Başgöz, I. (1995). *Folk Tales and Storytelling Traditions*. Ankara: Türkiye İş Bankası Cultural Publications.

Turan, S. *Lament Songs in the Henna Tradition of Çukurova*. [Publication year and source not specified – needs clarification].

Abiturtest.com – General information about Uzbek folk traditions. URL: https://www.abiturtest.com [Accessed: April 15, 2025].

Oz.sputniknews.uz – Articles about Turkish and Uzbek wedding traditions. URL: https://oz.sputniknews.uz [Accessed: April 15, 2025].

Abdurrahman, G. *Turkish Folk Literature: A Handbook*. Ankara: Akçağ Publishing.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com